

INSONNING MUHIM ORGANLARIDAN BIRI BO'LGAN MIYANING INSON TASAVVUR QILA OLMAYDIGAN XUSUSIYATLARI VA IMKONIYATLARI

Ergasheva Muxlisa

Samarqand davlat tibbiyot universiteti

Annotatsiya: *Inson miyasi – butun tanani boshqaruvchi, eng murakkab va sirli organlardan biridir. U bizning o'ylash, his qilish, eslab qolish va qaror qabul qilish qobiliyatimizni belgilaydi. Olimlar hali ham miyaning barcha imkoniyatlarini to'liq o'rganib bo'lmagan. Ma'lumki, inson miyasi bir soniyada millionlab axborotni qayta ishlay oladi, shunga qaramay, biz uning imkoniyatlaridan faqat oz qismini ongli ravishda ishlatamiz. Bugungi kunda texnologiyalar – suni'iy intellekt, virtual haqiqat kabi yangiliklar ham miyaning ishlashiga ta'sir ko'rsatmoqda. Ammo baribir inson miyasi o'zining ijodkorligi, his – tuyg'usi va fikrlash qobiliyati bilan har qanday mashinadan ustun turadi. Miyaning to'liq imkoniyatlari hali ochilmagan, ammo u insonning eng buyuk sirlaridan biri bo'lib qolmoqda.*

Kalit so'zlar: *Inson miyasi, neyronlar, prefrontal korteks, temporal lob, neyrogenez, miya tiklanishi, uyqu va xotira.*

Kirish

Har kuni biz minglab fikrlar o'tkazamiz, qarorlar qabul qilamiz, his qilamiz va orzu qilamiz. Ammo bu jarayonlarning barchasi qanday sodir bo'lishini hech o'ylab ko'rganmizmi? Bizni kuldiradigan, yig'latadigan, eslab qolishga yoki unutishga majbur qiladigan kuch aslida bitta - miyamizdir. U shunchalik murakkabki, hatto eng ilg'or texnologiyalar ham uning to'liq qanday ishlashini aniqlab bera olmaydi. Inson miyasi – bu cheksiz imkoniyatlar manbai. Ba'zida u biz kutmagan payta noodatiy kuchini namoyon etadi: kimdir hayotidagi har bir lahzani yodda saqlaydi, kimdir esa bir qarashda murakkab muammoni yechadi. Olimlarning fikricha, inson miyasi hali to'liq “uyg'onmagan” – biz uning imkoniyatlarining atigi kichik qismini ongli ravishda ishlatamiz, xolos. Shu sababdan ham miya bugungi kunda ham ilm – fanning eng qiziqarli va sirli mavzularidan biri bo'lib qolmoqda.

Asosiy qism

Inson miyasi – bu tabiat yaratgan eng murakkab va sirli tuzilmalaridan biridir. U atigi 1,4 kilogramm og'irlikka ega bo'lsada, butun tanamiz faoliyatini boshqaradi: harakat, fikrlash, xotira, his – tuyg'ular, hatto orzularimiz ham miyyada shakllanadi. Olimlar hali – hanuz miyaning barcha imkoniyatlarini to'liq o'rganib bo'lishmagan. Ma'lumki, miya 100

milliardga yaqin neyronlardan tashkil topgan bo'lib, ularning har biri millionlab aloqalar orqali ma'lumot uzatadi. Bu aloqa tarmog'i butun internet tizimidan ham murakkabdir.

Ko'pchilik "inson miyasi faqat 10 foizi ishlaydi" degan fikrni eshitgan, ammo bu ilmiy jihatdan noto'g'ri. Aslida miya deyarli doimo faol holatda bo'ladi – hatto uxlayotgan paytimizda ham. Farqi shundaki, bir vaqtning o'zida hamma neyronlar ishlamaydi; miya faqat zarur sohalarni faollashtiradi, bu esa energiyani tejashga yordam beradi.

Mashhur olim Albert Eynshteynning miyasi o'rganilganda, uning parietal (tepa) qismi biroz boshqacharoq tuzilganligi aniqlangan. Aynan shu soha matematik tafakkur va fazoviy tasavvur bilan bog'liq. Biroq bu degani Eynshteynning miyasi boshqalarnikidan "kattaroq" bo'lgan degan emas - u miyadan samaraliroq foydalangan.

Miyaning hissiy holatlarga javobi ham hayratlanarli. Masalan, stress paytida "amigdala" deb ataluvchi soha faol ishlaydi, yurak urishi tezlashadi, qo'rquv hissi kuchayadi. Muhabbat vaqtida esa dopomin va oksitotsin gormonlari ajralib chiqib, "baxt" va "bog'lanish" hissinı uygotadi. Shuning uchun ham inson yuragi emas, aslida miyasi orqali sevadi.

Texnologiyalar ham miyaning ishlashiga ta'sir ko'rsatmoqda. Sun'iy intellekt, virtual haqiqat va kompyuter o'yinlari neyron faolligini o'zgartirib, yangi fikrlash yo'llarini shakllantiradi. Ammo haddan ortiq raqamli hayot tarzida yashash diqqatni susaytirishi va real hayotdagi hissiy aloqalarni zaiflashtirishi mumkin.

Shuningdek, inson miyyasi hali ochilmagan ko'plab sirlarga ega. Masalan, nega ayrim insonlar g'ayrioddiy xotiraga ega? Nega ba'zilar orzularini aniq eslab qoladi, boshqalar esa yo'q? Yoki qanday qilib ba'zi odamlar, masalan, "oyparastlik" holatida ongli ravishda emas, lekin murakkab harakatlarni bajara oladi? Bu holatlar miyaning ongsiz faoliyatini, ya'ni "avtomatik" tizimlarini yanada chuqurroq tushunushimiz kerakligini ko'rsatadi.

Miyya – bu insoniyatdagi eng buyuk sir. Biz undan har kuni foydalanamiz, ammo uni to'liq anglab yetish hali uzoq yillar davom etadigan ilmiy sayohatdir.

Xulosa

Inson miyasi – bu olamdagi eng buyuk sir va eng qudratli kuchdir. U bizning orzularimizni shakllantiradi, hayotimizni boshqaradi va hatto biz o'ylamagan imkoniyatlarga eshik ochadi. Har bir inson o'z miyasining cheksiz imkoniyatlarini to'liq anglab yetganida, u o'z hayotining chin sohibiga aylanadi.

Eynshteyn, Tesla va Leonardo da Vinchi kabi daho insonlar o'z miyyasining kuchini to'liq ishga solganlar, lekin bu faqat ulargagina emas - har birimizga berilgan imkoniyatdir. Miyamizni o'stirish, o'ylash doiramizni kengaytirish, ijod qilish va o'zimizni rivojlantirish orqali biz ham cheksiz aql olamiga qadam qo'yishimiz mumkin.

Shunday ekan, inson miyasi haqida gap ketganda, uni shunchaku organ deb emas, balki ichimizdagi “koinot” deb qarash lozim. Chunki haqiqiy kashfiyot – bu tashqi olamni emas, balki o‘z miyyasining cheksiz kuchini kashf eta olgan insondir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Damasio, A.R. (2010). Self Comes to Mind: Constructing the Conscious Brain. New York: Pantheon Books.
2. Hawkins, J. & Blakeslee, S. (2004). On Intelligence. New York: Times Books.
3. Doidge, N. (2007). The Brain That Changes Itself: Stories of Personal triumph from the Frontiers of Brain Science. Penguin Books.
4. Kandel, E.R., Schwartz, J.H., & Jessell, T.M. (2013). Principles of Neural Science. McGraw-Hill Education.
5. “Human Brain Facts.” National Geographic Science, 2023.
6. “The Myth of 10% Brain Use.” Scientific American, 2022.
7. “How Emotions Affect the Brain.” Harvard Medical School Health Publishing, 2021.
8. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Neyrofiziologiya bo‘limi ma‘lumotlari (2024).
9. “Albert Einstein’s Brain: What Made It Different?” BBC Science Focus Magazine, 2023.
10. “miya va inson tafakkuri haqida qiziqarli faktlar. “Ziyonet.uz – Ilmiy maqolalar bo‘limi, 2024.